

**O‘ZBEKISTON HUDUDIDA KATTA QUVVATLI QUYOSH  
FOTOELEKTR STANSIYALARINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA  
ERISHILGAN NATIJALARI VA ISTIQBOLLARI TAHLILI**

Sarsenbayev Dauletbay Baktibayevich

O‘zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi huzuridagi Qayta tiklanuvchi  
energiya manbalari milliy ilmiy-tadqiqot institutining kichik ilmiy xodimi  
d.b.sarsenbaev@gmail.com

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida katta quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini rivojlantirish bo‘yicha erishilgan natijalari va istiqbollarning tahlillari bo‘yicha yozilgan.

**Kalit so‘z:** qayta tiklanuvchi energiya manbalari, quyosh energiyasi, katta quvvatli fotoelektrik stansiyalar, investitsiya va texnik salohiyoti.

*Energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun mamlakatimiz energetika tizimini isloh qilishimiz, bu borada aniq strategiya ishlab chiqishimiz lozim.*

*SH.M.Mirziyoev*

Zamonaviy turmushimizda energetika sanoati sohalaridagi rivojlanishning asosi bo‘lib, ishlab chiqarishdagi o‘shish darajasini belgilab beradi. Sanoatni rivojlangan barcha mamlakatlardagi energetika sohasining rivojlanish tezligi boshqa sohalarning rivojlanishidan oldinda yurishi kerak.

Sababi, har bir mamlakatning energiya ta‘minoti uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va mustaqillikka erishishidagi asosiy shartlardan biridir.

Markaziy Osiyoda O‘zbekiston rivojlangan elektr energetika tizimiga va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining katta salohiyatiga ega davlatlaridan biri hisoblanadi [1].

So‘ngi yillari respublikamiz hududida qulay huquqiy, iqtisodiy va ilmiy-tadqiqot qilish muhitning yaratilishi esa ushbu texnik salohiyotning sezilarli qismini o‘zlashtirish imkonini bermoqda.



Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlarini texnik salohiyotning sezilarli qismini o‘zlashtirishda huquqiy muhitning yaratilishida asos sifatida keltirishimiz mumkin [2].

O‘zbekiston hududida katta quvvatli fotoelektrik stansiyalarni rivojlantirish bo‘yicha erishilgan natijalari va istiqbollari sifatida quydagilarni keltirishimiz mumkin:

2021-yil 27-avgust kuni Navoiy viloyati Karmana tumanida 100 MVtli quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Bu yerda 268 gektar yer maydonda 300 mingta quyosh panellari o‘rnatilgan bo‘lib, yiliga 252 mln kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Buning hisobidan 80 mln m<sup>3</sup> tabiiy gaz tejalib, atmosferaga 160 ming tonna bug‘lanuvchi gazlar chiqishining oldi olinadi.

Ushbu stansiyaning Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi “Xalqaro moliya korporatsiyasi”, “Osiyo taraqqiyot” banki va “Yevropa tiklanish” va “Taraqqiyot” banklaridan qarz olib, mazkur loyihaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri 110 mln dollar investitsiyalarni kiritib, qurilish bosqichida 500 ta ish o‘rni yaratib, amalga oshirgan.

Shuningdek, “Masdar” kompaniyasi 1 kVt soat uchun 2,67 AQSH senti miqdorida dunyoda eng past tariflardan birini taklif qilgan va 25 yil davomida undan foydalanish bo‘yicha majburiyatlarni olgan.

2022-yil 24-may kuni Samarqand viloyatining Nurobod tumanida 100 MVtli quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. Bu yerda 353 gektar yer maydonda 295 mingtadan ortiq quyosh panellari o‘rnatilgan bo‘lib, yiliga 260 mln kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Buning hisobidan 78 mln m<sup>3</sup> tabiiy gaz tejalib, atmosferaga 100 ming tonna bug‘lanuvchi gazlar chiqishining oldi olinadi.

Mazkur loyihaga Fransiyaning “Total EREN” kompaniyasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri 100 mln dollar investitsiyalarni kiritib, qurilish bosqichida 400 ta ish o‘rni yaratib, amalga oshirgan.

“Total EREN” kompaniyasi stansiya ishga tushgandan keyin 25 ta yangi ish o‘rni yaratgan va 25 yil davomida undan foydalanish bo‘yicha majburiyatlarni olgan.



Shuningdek, 2026-yilgacha O‘zbekistonda umumiy quvvati 8000 MVt bo‘lgan quyosh va shamol elektr stantsiyalarini (1-rasm) ishga tushirish rejalashtirilmoqda [3].

No	Quyosh va shamol elektr stantsiyalarning joylashishi	Turi	O‘rnatilgan quvvati, MVt	Ishga tushish yili
1	Navoiy viloyatida	QFES	100 (ishga tushgan)	2021 y.
2	Samarqand viloyatida	QFES	100 (ishga tushgan)	2022 y.
3	Surxondaryo viloyatida	QFES	460	2024 y.
4	Samarqand viloyatida	QFES	220	2024 y.
5	Jizzax viloyatida	QFES	220	2024 y.
6	Navoiy viloyatida	QFES	200	2025 y.
7	Buxoro viloyatida	QFES	250	2025 y.
8	Namangan viloyatida	QFES	150	2025 y.
9	Xorazm viloyatida	QFES	100	2025 y.
10	Farg‘ona viloyatida	QFES	100	2026 y.
11	Qashqadaryo viloyatida	QFES	300	2026 y.
12	Jizzax viloyatida	QFES	150	2026 y.
13	Istiqboldagi loyihalar	QFES	1650	2025-2026 yy.
<b>Jami quyosh fotoelekt stantsiyalari (QFES):</b>			<b>4000</b>	<b>2026-yilgacha.</b>
1	Navoiy viloyatida	SHES	500	2024 y.
2	Buxoro viloyatida	SHES	1000	2024 y.
3	Qoraqalpog‘iston Respublikasida	SHES	100	2024 y.
4	Qoraqalpog‘iston Respublikasida	SHES	200	2025 y.
5	Qoraqalpog‘iston Respublikasida	SHES	1500	2026 y.
6	Istiqboldagi loyihalar	SHES	700	2025-2026 yy.
<b>Jami shamol elektr stantsiyalari (SHES):</b>			<b>4000</b>	<b>2026-yilgacha.</b>
<b>Jami quyosh va shamol elektr stantsiyalar:</b>			<b>8000</b>	<b>2026-yilgacha.</b>

### 1-rasm. 2026-yilgacha O‘zbekistonda ishga tushiriladigan va foydalanishga topshiriladigan QTEM umumiy quvvati ro‘yxati.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosdagi elektr stantsiyalarining ulushini 30% gacha yetkazish bo‘yicha qo‘ygan strategik maqsadimizga erishishda va O‘zbekistonning energiya xavfsizligi va diversifikatsiya strategiyasiga ijobiy hissa qo‘shadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Dj.Xodjaev “Iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejamkor texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyotlari to‘g‘risida loyiha tashabbuskorlariga ma’lumotlar etkazish” Qo‘llanma. Toshkent – 2018 yil. 96 b.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. [www.minenergy.uz](http://www.minenergy.uz)

